JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 24 - avgust 176-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, piyodalar o‘tish joyi, yo‘l belgilari, va sun’iy notekisliklar o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 26-iyundagi 42/2203-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Forish tumani Sayyod MFY hududlariga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisliklari va yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (X.Jo‘raqulov)ga tuman hududidagi “Sayyod” MFY hududlariga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisliklari va yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur sun’iy yo‘l notekisliklari va yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.MATIYEV**

Forish tuman hokimining
2023-yil 24-avgustdagi
176-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Sayyod MFY ichki yoʻllariga oʻrnatiladigan sun’iy yoʻl notekisliklar joylashuvi dislokatsiyasi

т/r	MFY nomi	Obyekt nomi	Joylashtirish joyi PK		Soni	Yoʻl belgisi nomi
1	Sayyod MFY	7-umumta`lim maktabi filiali roʻparasi	00+176	00+178	1	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
2	Sayyod MFY	Sayyod QVP binosi roʻparasi	01+48	00+50	1	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi